

FAN
OLIMPIADALARI
MARKAZI





FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

Iste'dodlarni kashfetamiz!

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI
FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

**2025-2026-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA
ASOSIY OLIMPIADANING IKKINCHI TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI**

TARIX (11-sinf)

FANIDAN

TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI

Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi

Imzo

Ushbu test topshiriqlari kitobi 30 ta (1–30) yopiq turdagi test topshiriqlaridan iborat.
Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball savol kitobida ko'rsatilgan.
Topshiriqlar yopiq turdagi bo'lib, ularda A, B, C va D javob variantlari berilgan.
Ishtirokchi har bir topshiriq uchun faqat bitta to'g'ri javobni tanlashi va javoblar varaqasida mos keluvchi doirachani to'liq bo'yashi kerak.

*Ajratilgan vaqt: 60 daqiqa
Savollar soni: 30 ta
Maksimal ball: 50 ball*

Ushbu savollar kitobi 4 sahifadan iborat

Fan olimpiadalari markazi
rasmiy telegram sahifasi.
@Fan_olimpiadalari_M

Olimpiada topshiriqlari
yechimlari ushbu telegram
kanalda e'lon qilib boriladi.



© Fan olimpiadalari markazi, 2025

1. [0,9 ball] Oliy harbiy lavozim amirlashkar bo'lgan davlatda xazina ishlarini yurituvchi mansab egasini toping.

- A) devonbegi B) mehtar
C) otaliq D) qushbegi

2. [0,9 ball] 1854-yil "Tinchlik va do'stlik to'g'risida" shartnoma imzolangan davlatlarni toping.

- A) AQSH va Xitoy
B) Buyuk Britaniya va Xitoy
C) AQSH va Yaponiya
D) Buyuk Britaniya va Yaponiya

3. [0,9 ball] XX asrda Sharqiy Buxoro hududida amirlik davridagi boshqaruv usulini joriy qilgan shaxsni toping.

- A) Davlatmandbek B) Mulla Abdulqahhor
C) Ibrohimbek D) Bahrombek

4. [0,9 ball] 1640-yilda qaysi davlat Angliyaga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yuboradi?

- A) Gollandiya B) Irlandiya
C) Fransiya D) Shotlandiya

5. [0,9 ball] Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsadlari keltirilgan javoblarning qaysi biri xato berilgan?

- A) "Usuli qadim"ni inkor etmagan holda fuqarolik jamiyatini qurish.
B) Milliy pul birligi va milliy qo'shin tuzish.
C) Konstitutsion, parlament idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurish.
D) Milliy davlat bunyod etish.

6. [0,9 ball] Quyidagi keltirilgan qaysi voqeadan so'ng Ozarbayjon va Iroq viloyatlari Temuriylar qo'lidan ketadi?

- A) Amir Temur vafotidan so'ng
B) 1447-yil 12-martda Shohrux vafot etganidan so'ng
C) Abu Said turkmanlarga qarshi jangda halok bo'lganidan so'ng
D) Qoraqo'yunli turkmanlarning qabila boshlig'i Qora Yusuf bilan bo'lgan jangda Mironshoh halok bo'lganidan so'ng

7. [0,9 ball] Buxoro amirligining qaysi xattoti "Axloqi Muhsiniy" kitobini hamda Sa'diyning she'riy asarlarini rasm bilan bezagan?

- A) Yusuf Hamadoniy
B) Mir Ma'sum Olamiyon
C) Mirzo Sodiq Jondoriy
D) Ahmad Donish

8. [0,9 ball] Qachon Buyuk Britaniyada quyi palata hukumatga ishonchsizlik bildirgan

taqdirda, hukumat iste'foga chiqishga majbur bo'ladigan tartib o'rnatildi?

- A) 1832-y B) 1688-y C) 1640-y D) 1825-yil

9. [0,9 ball] Ekspansiya bu ...

- A) Mustamlakachi davlatlarning o'zgalar hududlarini va bozorlarini, xomashyo manbalarini bosib olishga, siyosiy va iqtisodiy ta'sir doiralarini kengaytirishga qaratilgan siyosat
B) Bir davlat hududining yoki bir qismini boshqa davlatga zo'rlik bilan qo'shib olinishi
C) Mamlakat qo'shinlarini harbiy xizmatdan bo'shatish
D) Italiyaga qo'shni hududlarda italyan aholisi yashovchi joylarni qo'shib olish harakati

10. [0,9 ball] Ma'rifatparvar asridagi qaysi ijodkor o'z asari orqali insonning o'z g'oyalari uchun kurashi buyuk kurash ekanligini ta'kidlash orqali mazkur davr mohiyatini ochib berdi?

- A) I.Gyote B) J.Russo C) J.Svift D) D.Defo

11. [1,5 ball] Quyidagi voqealardan XIX asrning ikkinchi yarmida bo'lib o'tganini toping.

- A) V.Perovskiy boshchiligidagi qo'shin Xiva xonligigacha yetib borolmay orqaga qaytib ketishga majbur bo'ldi.
B) Buyuk Britaniya tomonidan kapitan J. Abbot Xiva va Buxoroga yuborildi.
C) Rossiya imperiyasi tomonidan Sirdaryoning Orolga quyilish joyida Raim qal'asi bunyod etildi.
D) Orenburg general-gubernatorligi tarkibida Turkiston viloyati tashkil qilindi.

12. [1,5 ball] Qaysi javobdagi ma'lumotda xatolikka yo'l qo'yilgan?

- A) Buyuk Britaniya mustamlakasi Oltin Qirg'oq o'z mustaqilligini e'lon qiladi.
B) Fransiya mustamlakasi Gvineya o'z mustaqilligini e'lon qildi.
C) 1932-yil o'z mustaqilligini e'lon qilgan Suriya ko'p jihatdan Buyuk Britaniyaga bog'liq bo'lib qolaverdi.
D) Turkiyada 1982-yil noyabrda o'tkazilgan referendum yangi konstitutsiyasini tasdiqladi.

13. [1,5 ball] Tarixiy-mantiqan to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- A) Buxoro raqqoslari – doira raqsi
B) Quva usta humarmandlari – o'ndan ortiq cholg'u-asboblari

- C) Varaxsha topilmalari – ganchkorlik san'atining nodir yodgorligi
 D) Urgut tumani – buddaviylik markazi
- 14. [1,5 ball]** Mil. avv. VI asrning o'rtalarida...
- A) Kir II barcha forslarni o'z hokimiyati ostida birlashtiradi
 B) Ossuriya davlati tanazzulga yuz tutdi
 C) Afinada avvalgi boshqaruv tizimi – aristokratiya yangi boshqaruv shakli demokratiyaga almashtirildi.
 D) Rim sarkardalari butun Italiyani zabt etishga erishdilar
- 15. [1,5 ball]** Tezotar ko'chma to'plar va parchalaydigan portlovchi moddalar qaysi davlatda paydo bo'lgan?
- A) Germaniya B) Fransiya
 C) Angliya D) Rossiya
- 16. [1,5 ball]** XVIII asrda Fransiya hukumati tepasida kimlar turgan davrda savdodagi cheklashlarni bekor qildi, savdo erkinligi boshlandi, narxlar bir necha bor ko'tarilib ketdi, pul keskin qadrsizlandi?
- A) direktoriya B) termidorchilar
 C) yakobinchilar D) jirondachilar
- 17. [1,5 ball]** "Hayot", "Azizim", "Mont-Oriol" asarlari orqali bir qator ijtimoiy masalalarni mahorat bilan tasvirlagan ijodkorni toping.
- A) Jyul Vern B) Gi de Mopassan
 C) Jek London D) Bernard Shou
- 18. [1,5 ball]** Quyidagilar orasidan noto'g'ri ma'lumot berilgan javobni aniqlang.
- A) Doriylar Miken davlatini tugatib, Sparta davlatiga asos solishgan
 B) Fermopil jangidan keyin Kserks qo'shinlari O'rta Yunonistonga yetib borib, Afinani ishg'ol qilgan
 C) Misrda o'rta podsholik davriga kelib, fir'avnlarni tog'larga o'yilgan tosh maqbaralarga dafn etadigan bo'lishdi
 D) Elam davlatining poytaxti Suza shahri bo'lgan
- 19. [1,5 ball]** Quyidagilardan XIX asr tarixiga oid bo'lmaganlarini toping.
1. "Ixtetuan" harakati; 2. "Xey" doktrinas; 3. Uchlar pakti; 4. Simonoseki sulhi; 5. "Barbarossa" rejasi; 6. "Berlin traktati"; 7. "Marshall rejasi"; 8. "Kulturkampf"
- A) 1, 3, 5 B) 4, 6, 8 C) 3, 5, 7 D) 2, 5, 7
- 20. [1,5 ball]** Bir yilda sodir bo'lgan voqealarni toping?
- A) Rossiya Usmonli Sultonning Astraxon orqali Haj safari yo'lini ochib qo'yish haqidagi talabini

- qondirdi va "Moskva kompaniyasi" Rossiya orqali Sharqqa yo'l ochish uchun o'z elchisi A.Jenkinsonni Buxoroga yubordi.
- B) Rossiya – Usmonli Turk davlati o'rtasida urush boshlandi va Buxoro xoni Iskandarxon vafot etdi.
- C) Navro'z Ahmadxon vafot etdi va Rossiya Hojitarxon xonligini bosib oldi.
- D) Buxoroga Rossiya elchisi I.Xoxlov yuborildi va F.Beneveni Peterburgga qaytib ketdi.
- 21. [2,6 ball]** Uchinchi salib yurishida ishtirok etmagan davlat tarixiga oid ma'lumotni aniqlang.
- A) Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda iqtisodiyoti ancha tez sur'atlar bilan rivojlandi. 1947-yil oxiriga kelib, sanoat ishlab chiqarishning hajmi urushdan oldingi darajasiga yetdi
 B) 1981-yil prezident saylovlarida birinchi marta sotsialist vakili prezident etib saylandi.
 C) Ikkinchi jahon urushida 6,5 mln. aholisidan, urushdan oldingi o'z hududining bir qismidan ayrildi.
 D) 1974-yili chuqur iqtisodiy inqiroz boshlandi. Ishlab chiqarishning o'sishi deyarli to'liq to'xtadi.
- 22. [2,6 ball]** "Qora polkovniklar" diktaturasi o'rnatilgan davlat tarixiga oid ma'lumotni toping.
- A) Hind okeanida Madakaskar orolini bosib olishga bir necha bor urunib ko'rdi, lekin muvaffaqiyatsizlikka uchradi
 B) 1827-yili Londonda ushbu davlatga muhtoriyat huquqi berilishini ko'zda tutuvchi bitim imzolandi.
 C) "Qrim urushi"da mag'lub bo'ldi.
 D) Qora dengizning Bosfor hamda Dardanell bo'g'ozlarini qo'lga kiritishga intilgan.
- 23. [2,6 ball]** 1980-yillarda ...
1. Sotsialistik mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli yanada yomonlashdi;
 2. Markaziy va sharqiy Yevropa mamlakatlarda sanoat ishlab chiqarishining o'sishi barqaror ravishda yiliga 6-8 % darajasida saqlanib qoldi;
 3. SSSR, Ruminiya mamlakatlarida oziq-ovqat muammosi juda keskinlashdi;
 4. Polshada ahvol og'ir bo'lib, ishchilar "Birdamlik" mustaqil ommaviy kasaba uyushmasini tuzdilar;
 5. Vengriya xalq respublikasi nomi Vengriya respublikasi deb o'zgartirildi;

6. Bolgariyada muxolifat kuchlar hokimiyatga keldi;

7. O'zaro iqtisodiy yordam kengashi tarqalib ketdi.

A) 1, 3, 4 B) 2, 4, 6 C) 3, 5, 7 D) 1, 5, 7

24. [2,6 ball] Quyidagi berilgan hududlarni turli hunarmandchilik sohasiga ixtisoslashganligini mos ravishda to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

a) Marg'ilon; b) Buxoro; c) Shahrixon; d) Chust
1. Ganchkorlik; 2. Atlas to'qish; 3. Duradgorlik; 4. Zargarlik; 5. Misgarlik; 6. Pichoqchilik; 7. Kulolchilik; 8. Do'ppichilik

A) a-1; b-3; c-6; d-8 B) a-1; b-3; c-5; d-7

C) a-2; b-4; c-5; d-8 D) a-2; b-4; c-6; d-8

25. [2,6 ball] Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi vakillari Ch.Stoddart va A.Komnolilar Buxoroga qanday taklif bilan kelgan edi?

A) O'rta Osiyo davlatlariga harbiy sohada yordam berish va ular bilan Rossiya imperiyasiga qarshi harbiy ittifoq tuzish

B) Angliya bilan aloqalarni yo'lga qo'yish, ingliz harbiy mutaxassislarini Buxoroga yuborish, savdo aloqalarini yo'lga qo'yish

C) Sirdaryo sohillarida harbiy istehkomlar qurish, ularning qurilishida ingliz muxandislarini taklif qilish

D) o'zbeklar va tojiklar yashaydigan Amudaryoning janubiy sohillarida ingliz harbiy istehkomlarini qurish

26. [2,6 ball] Quyidagi olimlarni ularni qilgan ishlari bo'yicha moslashtiring.

1.L.Bakeland; 2.R.Kirxgof; 3.I.Time; 4.G.Gers

a) cho'yanni po'latga aylantirish masalasini hal qildi;

b) plastmassa olish yo'li topildi;

c) elektromagnit to'lqinlarini tarqalish fakti isbotlandi;

d) metall kesish jarayonini ilmiy jihatdan tekshirishga asos soldi;

e) yonilg'i siqilganida o'z-o'zidan alanganib ketadigan yangi dvigatel yaratdi

A) 1-c; 2-a; 3-e; 4-b B) 1-a; 2-b; 3-d; 4-c

C) 1-b; 2-a; 3-e; 4-c D) 1-b; 2-a; 3-d; 4-c

27. [2,6 ball] Voqealarni sodir bo'lganiga qarab xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.

1) Eron shohi Nodirshoh Buxoro xonligini qaram davlatga aylantirdi; 2) Pyotr I Irtish daryosi sohilida yetti qo'rg'ondan iborat shahar qurdirdi; 3) Rossiya hukumati Buxoroga F.

Benevenini elchi qilib jo'natdi; 4) Yermak boshchiligidagi qo'shin mag'lubiyatga uchrab halok bo'ldi; 5) Abdullaxon II ning harbiy yordami bilan shayboniy Ko'chimxon Sibir xonligi taxtini egalladi; 6) Buxoroga Rossiya elchisi I. Xoxlov yuborildi; 7) Rossiya-USmonli davlati o'rtasida urush boshlandi; 8) Rossiya Hojitarxon xonligini bosib oldi; 9) Moskvada ingliz-rus iqtisodiy aloqalari rivojiga xizmat qiluvchi "Moskva" savdo kompaniyasi tashkil etildi; 10) Buxoroda yirik, usti berk bozor – tim qurildi.

A) 8, 9, 10, 5, 7, 2, 4, 6, 1, 3

B) 9, 8, 5, 10, 7, 6, 4, 3, 2, 1

C) 5, 9, 8, 6, 10, 4, 7, 3, 1, 2

D) 9, 8, 5, 7, 10, 4, 6, 2, 3, 1

28. [2,6 ball] Quyidagi kashfiyotlarning vujudga kelganligi bo'yicha xronologik ketma-ketlikda joylashtiring.

1) g'ildirak; 2) turar joy; 3) kulolchilik xumdonlari; 4) o'q-yoy; 5) tolalar va jundan kiyim-kechak tayyorlash; 6) ibtidoiy ziroatchilik va chorvachilik; 7) chopperlar.

A) 7, 5, 4, 6, 2, 3, 1 B) 7, 3, 2, 5, 4, 6, 1

C) 7, 6, 4, 2, 3, 5, 1 D) 7, 2, 4, 6, 5, 3, 1

29. [2,6 ball] Islom olamida "Musulmonlarning e'tiqodini tuzatuvchi" degan yuksak sharaftga sazovor bo'lgan allomaga tegishli asarni toping.

A) "Hikmat"

B) "Kitob at-Tavhid"

C) "Hidoya"

D) "Hayotnoma"

30. [2,6 ball] Ma'lumki, XIX asrda Buyuk Britaniyada konservatorlar partiyasi an'analarga sodiqligi bilan ajralib tursa, Liberallar partiyasi zamon ruhiga mos islohotlar o'tkazish tashabbuskorligi bilan ajralib turardi. Ayni paytda ularni birlashtiruvchi yagona manfaatlar ham mavjud bo'lib, ana shu manfaatlar mushtarakligi asoslarini toping.

1) Buyuk Britaniyaning dunyoda yetakchi davlat maqomini saqlab qolishga intilishi; 2) Buyuk Britaniyaning AQSH bilan hamkorlik qilishini qo'llab-quvvatlashi; 3) soliqlar miqdorini bosqichma-bosqich kamaytirib borish. 4) Mustamlaka imperiyani yanada kengaytirishi; 5) mamlakatda koalitsion hukumat tuzish; 6) dunyo bozorlaridan o'z raqiblarini siqib chiqarish.

A) 2, 3, 5 B) 1, 4, 6 C) 1, 3, 5 D) 2, 4, 6

FAN
OLIMPIADALARI
MARKAZI

